

Fond bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni samarali boshqarishning amaldagi holati tahlili

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402490>

Xusanboyev Axmadjon Akbar o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fond bozori va uni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili, fond bozoriga ta'sir etuvchi omillarni samarali boshqarishning amaldagi holati tahlili, fond bozorini rivojlantirish zaruriyati va afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fond bozori, aksiyalar bozori, IPO, SPO, aksiya, obligatsiya, QQB, ikkalamchi bozor

O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan izchil islohotlar boshqa sohalar kabi fond bozorining ham rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Uning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari o'tish davriga mansub bo'lgan O'zbekistonning tanlagan rivojlanish modeliga asoslangan. O'zbekistonning iqtisodiyotini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish va sanoat jihatidan o'sishni ta'minlashda fond bozori aktivlarining roli va funksiyalari katta ahamiyatga ega. Chunki, jahon amaliyotidan ma'lumki, aynan fond bozori aktivlari milliy iqtisodiyotning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun investitsiyalarni jalb qilish, real sektorni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda va umuman iqtisodiyotda barqaror o'sishni rag'batlantirish maqsadida moliyaviy resurslarni jalb qilishning samarali mexanizmidir.

O'zbekistonda fond bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil etib, uni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1993 yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda O'zbekistonda fond bozorining dastlabki rasmiy institutlari paydo bo'ldi. "Toshkent" birjasining qoshida qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanadigan fond bo'limi tashkil etildi.

Ushbu bosqich qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirishi bo'yicha birinchi qonunning qabul qilinishi va qimmatli qog'ozlar bozori

professional ishtirokchilari bo'lgan jismoniy shaxslarni attestatsiya qilishning boshlanishi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich 1994-1996 yillarni qamrab olib, bu davr keng miqyosli xususiylashtirishning boshlanishi bilan aksiyalar va veksellar bozorining keskin rivojlanishi bilan farqlanadi. Ushbu davrda milliy fond bozorini muvofiqlashtiruvchi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksionerlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” va “Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat yuritish mexanizmi” to‘g‘risidagi asosiy qonunlar qabul qilindi.

Mazkur bosqich depozitar tizimining va mulkdorlar sinfining shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich 1997-2000 yillarni qamrab olib, Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorining shakllanishi va rivojlanish davri hisoblanadi.

Ushbu davrda maxsus infrastrukturalar shakllanishi va birjadan tashqari bozorining tuzilmasining tashkil topishi muhimdir. Shuningdek, veksel muomalasining tartibga solinishi, aksiyadorlik jamiyatlarda davlat ulushini tiklash va ko‘paytirish bilan bog‘liq ishlarning amalga oshirilishi ushbu davrga xosdir.

To‘rtinchi bosqich 2001-2006 yillarni o‘z ichiga olib, ushbu davr bir tomondan aksiyalarning uyushgan va uyushmagan bozorining rivojlanishining sekinlashishi va ikkinchi tomondan qimmatli qog‘ozlar bozorining yangi segmentlari: depozit sertifikatlari, korporativ obligatsiyalar, Markaziy bank obligatsiyalari, Davlat qisqa muddatli g‘aznachilik majburiyatnomalari muomalasining yo‘lga qo‘yilganligi bilan tavsiflanadi.

Ikkilamchi korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi va anderayterlar o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish, xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarining birlamchi bozorining jonlanishi, qarz majburiyatlarini tasdiqlovchi qimmatli qog‘ozlarning daromadliligi pasayishiga xos bo‘lgan tendentsiyalar ushbu davrga xos bo‘lgan holatlardir.

Afsuski, ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasidagi fond bozori iqtisodiyotimizga chambarchas bog‘lanmagan. Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi indekslarning ko‘tarilishi yoki tushishi milliy iqtisodiyotimiz sur‘atining

ko‘tarilishi yoki pasayishini izohlamaydi. Rivojlangan davlatlarda esa, qimmatli qog‘ozlar bozori indeksining tushishi yoki ko‘tarilishi iqtisodiyotining tushayotgani yoki ko‘tarilayotganligini ko‘rsatadi.

Birja savdo aylanmasining ortib borishi, o‘z navbatida, fond bozori aktivlarining jozibadorligi ortib borayotganligidan dalolat beradi. Rivojlangan davlatlar fond bozorlarida aktivlar keskin tebranishga ega bo‘lib, bu holatni mamlakatimiz fond bozorida unchalik sezilarli emas. Shunga qaramasdan aytish mumkinki, mamlakatimiz fond bozorning birja aylanmasi yildan - yilga o‘sib borish tendentsiyasiga ega.

O‘zbekiston fond bozori rivojlanishining hozirgi bosqichi qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtiruvchi to‘rtta muhim qonunlarning yagona “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi qonunga birlashtirilishi va uning xalqaro talablar doirasida tayyorlanganligi, fond bozorida banklar faoliyatining rivojlanganligi, milliy bozorning xalqaro fond bozoriga integratsiyalashuvining tezlashganligi bilan tavsiflanadi.

Agar ushbu rivojlanish tarixiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, nazarimizda milliy fond bozori juda tez rivojlanganligini guvohi bo‘lamiz. Sababi ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda fond bozori asrlar davomida rivojlangan. Ammo, shu bilan birgalikda ta‘kidlash lozimki, milliy fond bozorining ayrim sohalarining rivojlanishida ma‘lum oqsashlar mavjuddir.

Mustaqillik davrlarda O‘zbekiston fond bozorining rivojlanish darajasini quyidagi omillar belgilab berdi:

1. Davlat korxonalarini xususiylashtirish va shu munosabat bilan xususiylashtirilgan korxonalarni aksiyalarini muomalaga chiqarish;
2. Davlat ulushi bo‘lmagan yangi aktsioner jamiyatlarining aktsioner kapitalini shakllantirish;
3. To‘lov muammosi natijasida muomalaga veksellarning kirib kelishi;
4. O‘zbekistonda davlat byudjeti kamomadini noinflyatsion uslublarda moliyalashtirish amaliyotining rivojlanishi;
5. Mahalliy korxonalar va tashkilotlarda jamg‘arish me‘yorining ortishi va

aholining omonatlarini saqlash va ko'paytirishga bo'lgan harakatlarning faollashuvi;

6. Iqtisodiyotga xorijiy kapitalning kirib kelishi va boshqalar.

Bizning nazarimizda fond bozoriga investitsiyalashni rivojlantirishda raqobat muhitini shakllantirish muhimdir.

Bizga ma'lumki, fond bozoriga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirishda siyosiy, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va infratuzilmaviy omillar keng ta'sir etadi. Ushbu omillar ichida makroiqtisodiy omillar fond bozoriga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadigan omillardan biri hisoblanadi.

Ularga:

- Davlat byudjetining holati;
- inflyatsiya darajasi yoki milliy valyutaning barqarorligi;
- qayta moliyalashtirish stavkasi;
- turli darajadagi daromadlarni soliqqa tortish holati;

Davlat byudjetining holati fond bozori rivojlanish holatiga bevosita ta'sir qiladi. Agar byudjetda xarajatlar daromadlardan oshib ketib, kamomad yuzaga keladigan bo'lsa va ushbu kamomad pul emissiyasi orqali qoplansa, bu holat inflyatsiya darajasining oshishiga olib keladi. Pirovard natijada fond bozoriga investitsiyalash sekinlashadi.

Shuningdek, ko'pgina rivojlangan davlatlar hamda respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridagi tajribasida ham byudjet kamomadini noinflyatsion usullarda qoplash usuli fond bozori faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bu usulda byudjet kamomadi davlat qimmatli qog'ozlarini (g'aznachilik majburiyatnomalari, davlat obligatsiya va veksellari va h.k.) muomalaga chiqarish va sotish orqali qoplanadi. Bu esa, fond bozori konyukturasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" gi qonun, 30-modda. <https://lex.uz/acts/-4590452>
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 5-modda. <https://lex.uz/docs/-4581969>

3. Elmirzayev. Zamonaviy korporativ boshqaruv. // Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.
4. Элмирзаев С.Э., Боев Б.Ж. Акцияларни оммавий жойлаштириш операцияларини ташкил этиш ва ўтказиш. // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил. – Б.8; <http://interfinance.uz/en/arxiv/238-ikkiz20182307>
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 yil 1 dekabrda byulleteni.
6. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 222 b.
7. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
8. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
9. Jumaniyazov Inomjon Turaevich, & Juraev Maqsud Annaqulovich (2022). Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va risklarni baholash usullari. Science and Education, 3 (5), 1646-1654.
10. Turayevich J. I. Akmal o‘g‘li, SM (2023) //INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING O‘RNI. PEDAGOGS jurnali. – T. 35. – №. 4. – C. 147-157.
11. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023